

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
HUZURIDAGI KASBIY TA‘LIM AGENTLIGI
KASBIY TA‘LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI**

**O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG
KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN INTENSIV
CHORVACHILIK ISHLARI FANIDAN MALAKA TEST SINOVI
TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI**

Toshkent – 2026

O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN INTENSIV CHORVACHILIK ISHLARI FANIDAN MALAKA TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta‘lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Intensiv chorvachilik ishlari fani talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo‘llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me‘yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko‘nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me‘yoriy asoslar

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi “**Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta‘lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida**”gi 572-sonli Qarori.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

Intensiv chorvachilik ishlari

1. Qishloq xo‘jalik hayvonlarini urchitish;
2. Qishloq xo‘jalik hayvonlarini oziqlantirish;
3. Qoramolchilik sohasi va rivojlanish istiqbollari;
4. Qo‘ychilik sohasi va rivojlanish istiqbollari;
5. Yilqichilik sohasi va rivojlanish istiqbollari;
6. Cho‘chqachilik sohasi va rivojlanish istiqbollari;
7. Parrandachilik sohasi va rivojlanish istiqbollari;
8. Chorva mahsulotlarini qayta ishlash texnologiyasi;

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Testlar soni
1	Qishloq xo'jalik hayvonlarini urchitish	Qishloq xo'jalik hayvonlarini urchitish usullari, qishloq xo'jalik hayvonlarini kelib chiqishi evolyutsiyasi, iqlimlashtirish haqida bilimlarga ega bo'lish, qishloq xo'jalik hayvonlarining ekstereri, interyeri va konstitutsiyasi, hayvonlarining o'sish va rivojlanishi, hayvonlarini tanlash va juftlash usullari haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi.	5 ta
2	Qishloq xo'jalik hayvonlarini oziqlantirish	Qishloq xo'jalik hayvonlarini oziqlantirish usullari, ratsion tuzish, oziqa turlari, hayvonlarning oziqaga bo'lgan talabi, to'yimli moddalarga qarab ozuqalar to'yimligini baholash usullarini bilish, oziqalarning vitamin, mineral, protein to'yimliligini aniqlash usullarini biladi. Turli qishloq xo'jalik hayvonlari va parrandalarini oziqlantirish haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi	2 ta
3	Qoramolchilik sohasi va rivojlanish istiqbollari	Qoramolchilik haqida tushuncha, qoramollar ekstereri, interyeri va konstitutsiyasi xillarini biladi, qoramol zotlari, mahsuldorlik ko'rsatgichlari, naslchilik ishlari, saralash tanlash, juftlash usullari, podani to'ldirish va yosh mollarni yetishtirish va qoramollar mahsuldorligini oshirish usullari haqida bilimlarga ega bo'ladi.	6 ta
4	Qo'ychilik sohasi va rivojlanish istiqbollari	Qo'ychilik haqida tushuncha, qo'ylarning biologik xususiyatlari va tasnifi, qo'y zotlari mahsuldorlik ko'rsatgichlari, O'zbekistonda uchraydigan qo'y zotlari, qo'ylarni urchitish usullari, qo'ylarni bo'rdoqiga boqish va qo'ylardan olinadigan mahsulotlar haqida bilimlarda haqida bilimlarga ega bo'ladi.	6 ta
5	Yilqichilik sohasi va rivojlanish istiqbollari	Otlarning biologik xususiyatlari va tasnifi, mahsuldorlik ko'rsatgichlari, ot zotlari, otlarni ko'paytirish va urchitish texnikasi, ot sporti va turlari haqida bilimlarga ega bo'ladi.	5 ta
6	Cho'chqachilik sohasi va rivojlanish	Cho'chqachilik sohasining rivojlanishi va xalq xo'jaligidagi ahamiyati, cho'chqachilikning biologik	5 ta

	istiqbollari	xususiyatlari, mahsuldorligi oziqlantirish va saqlash sharoitlari, zot mahsuldorligi, ularni urchitish va ko'paytirish va bo'rdoqiga boqish usullarini bilish lozim	
7	Parrandachilik sohasi va rivojlanish istiqbollari	Parrandachilik sohasi va rivojlanish istiqbollari, paranda zotlari, mahsuldorlik ko'rsatgichlari, parandachilikda nasilchilik ishlarini olib borish, tuxumdan jo'ja ochirish ishlari, qishloq xo'jaligida parandalarni o'stirish ishlari, sanoat miqyosida tuxum va go'sht ishlab chiqarish sohaslarini rivojlantirish haqida bilimga ega bo'lish.	5 ta
8	Chorva mahsulotlarini qayta ishlash texnologiyasi	Chorvachilik maxsulotlaridan sut va sut mahsulotlari ishlab chiqish texnologiyasi, saryog', pishloq, konservalangan quruq sut ishlab chiqarish texnologiyasi, go'sht va go'sht maxsulotlari ishlab chiqarish texnologiyasi haqida bilimga ega bo'lish.	6 ta

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	20 %
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	60 %
3.	Muloha za qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	20%

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarini topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezoni va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

Test topshirig'ini bajarish uchun 80 daqiqa vaqt me'yori belgilanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. I. Maqsudov, J. Ya. Jo'rayev, Sh. Q. Amirov "Chorvachilik asoslari" Toshkent -2005

2. Axmedov A.M., Samorodov N.M., Jiyanov Ya. Sutchilik ishi va chorvachilik mahsulotlari texnologiyasi. Toshkent, "O'qituvchi" nashriyoti, 1973.

3. Axmedov A.M., Samorodov N.M., Jiyanov Ya. Sutchilik ishi va chorvachilik mahsulotlari texnologiyasi. Toshkent, "O'qituvchi" nashriyoti, 1973.

4. Movlonov N.O. Cho., chqachilik. Toshkent, "O'qituvchi" nashriyoti, 1969.

5. Murodov S. Qishloq xo'jalik mahsulotlarining vetsanekspertiziyasi, qayta ishlash texnologiya asoslari va standartizatsiyasi. Samarqand, 1997.

**Eslatma:* test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi, ammo test topshiriqlari to'g'ridan - to'g'ri manbalardan olinmaydi. Malaka sinoviga tayyorgarlik ko'rish jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlar eslab qolish manbai sifatida xizmat qilishdan ko'ra, umumiy kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashga qaratilgan.